



## LOPHANTHUS ANISATUS BENTH NING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Xolboeva Muhayyo Boboyor qizi**

Tabiiy fanlar fakulteti fakulteti 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6585112>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-may 2022

Ma'qullandi: 14- may 2022

Chop etildi: 24- may 2022

### KALIT SO'ZLAR

*lophantus anisatus Benth.*  
*ontogenez davrlari, urug'*  
*unuvchanligi, virginil,*  
*immatur*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu tezisda lofant o'simligining ahamiyati, laboratoriya sharoitida urug' unuvchanligi o'rganildi. Olingan natijalar amaliy o'rganishlar natijasida isbotlab berilgan.*

Dorivor o'simliklardan foydalanishda xalq tabobatida qadim zamonlardan boshlab bir qator bosqichlarni qayd etish mumkin. Xitoy, Tibet, Mo'g'uliston tibbiy maqsadlar uchun lofantni ilmiy asosda qo'llaydi va hatto uni turli mamlakatlarning rasmiy dorixonalarida dori-darmonli efir moyi sifatida kiritadi [2]. Ushbu noyob o'simlikning asosiy xususiyatlaridan biri butun immunitet tizimni himoya qilish va inson organizmidagi metabolik jarayonlarni normal o'tishini ta'minlashdir, chunki u eng

qimmatli moddalar -antioksidantlar va shifobaxsh efir moylariga ega bo'lib, toksinlarni bog'lab, ularni tanadan chiqarish, mukammal tozalash, davolash va uni yoshartirish qobiliyatiga ega.

Tadqiqotda lofantning urug' unuvchanligini laboratoriya sharoitida o'rganildi. Laboratoriya sharoiti muhitida +20...+25°C 80 % namlikda Petri likopchasida namlangan qog'oz ustiga 300 donadan lofant urug'lari ekildi. (1-jadval).

5 kundan keyin	12
7 kundan keyin	21
9 kundan keyin	37
11 kundan keyin	53

13 kundan keyin	74
15 kundan keyin	92

Laboratoriya sharoitida urug'lar 5 kunda unib chiqishni boshladi. Urug'lar unib chiqishni boshlagan kunda 4%, maksimal darajada unib chiqish esa 15 kunda (96,3%) Shunday qilib laboratoriya sharoitida jami 96,3 % urug'lar unib chiqdi.

Introduksiya qilinadigan har bir yangi o'simlikni o'stirish uchun uning individual taraqqiyoti (ontogenezini) qonuniyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. *Lophanthus anisatus benth.* ning urug'larini shakli yumaloq, to'q jigarrang, 0,3 sm, eni 0,1 sm. *Lophanthus*

*anisatus Benth.* ning ontogenezini o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, ularni urug'larining unuvchanlik xususiyati yuqori bo'lib, ekish oldidan skarifikasiya qilish shart emas [4]. Biogumusda ekilgan urug'lar 5 kunday keyin unib chiqa boshladi, yoppasiga esa 16 kundan keyin unib chiqdi. *Lophanthus anisatus Benth.* urug'larining unishi yer ustki bo'lib, asosiy ildizchanning paydo bo'lishidan boshlanadi. Urug'palla barglar 20-23 kun yashaydi. Uzunligi 0,3-0,4 sm tomirlari aniq ko'rinmaydi.



Birinchi juft barglar 4-5 kun davomida tuxumsimon shaklda ochiladi, chetlari qirrali, barglarning uzunligi 0,5-0,7 sm, kengligi 0,5-0,6 sm, ildizining uzunligi 1,2-1,5 sm Urug' ekilganining 27 kuni 2 juft barglar chiqishni boshlagan. 0,7-0,8 sm o'sadi, barglar oralig'i 1,2-1,5 sm uzunligi 0,9-1,3 sm, asosiy ildizi 2,5-3 sm. Immatur davrida 3-4 juft barglar chiqadi. Barglarning

kattaligi 2-3,5 sm uzunlikda va 1,3-3,3 sm kengligida. Bu davrda o'simlik uzunligi 5-6,5 sm o'sadi. Ildizi immature davrining boshida 2 sm qalinlashadi, uzunligi 3-3,5 sm bo'ladi, oxirida asosiy ildiz 6-8 sm bo'ladi. Immatur davri o'rtacha 30-kun davom etadi.

**Xulosa** *Lophanthus anisatus Benth.* ning ontogenezini o'rganish natijasida ma'lum



bo'ldiki, ularni urug'larining unuvchanlik xususiyati yuqori bo'lib, ekish oldidan skarifikatsiya qilish shart emas.

Laboratoriya sharoitida harorat 25 °C

va namlik 80 % da urug' unuvchanligi 96,3 % ekanligi aniqlandi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Фурсов, В.Н. Агрономические указания и технология выращивания
2. лофанта анисового [*Lophanthus anisatus* L. (Benth.)] / В.Н. Фурсов, Х.А.А.
3. Абделаал, М. Е. Резк // Естественные науки.- Астрахань: Издательский
4. дом «Астраханский университет», 2009.- № 2 (27).- С. 98-101
5. 2. Абделаал, Х.А.А. Лофант анисовый [*Lophanthus anisatus* L. (Benth.)]
6. новое эфирномасличное растение для Астраханской области / Х.А.А.
7. Абделаал, В.Н. Фурсов // Вестник всероссийского научноисследовательского
- института орошаемого овощеводства и бахчеводства.- Камызяк, РФ, 2010 .- №1(7).- С. 3.
8. 3. С.Е. Сапарклычева Виды лофанта (*Lophanthus anisatus*),
9. интродуцируемые на среднем урале / 2017. №2 (156). С. 1-4.
10. 4. Паршин, С.А. Урожайность и терапевтические качества лофанта
11. анисового [*Lophanthus anisatus* L. (Benth.)] в условиях Астраханской
12. области / С.А. Паршин, Н.В. Фурсов, В.В. Фурсов, В.Н. Фурсов, Ж.А.
13. Зимина, Х.А.А. Абделаал // Материалы пятой Всероссийской научной
14. конференции студентов и молодых ученых « Актуальные проблемы
15. инновационного развития агропромышленного комплекса» (Астрахань, 29
16. октября-1 ноября 2009 г.). Материалы пятой Всероссийской научной